

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

определенной группы потребителей или по географическому признаку. Тщательно выбирая сегмент и удовлетворяя потребности этого сегмента лучше, чем конкуренты, нацеленные на более широкие сегменты, компании могут получить значительное конкурентное преимущество. Это может произойти в том случае, если маркетинологи изначально смогут найти нишу, которая еще не заполнена крупными конкурентами, а затем разработать специализированный продукт для удовлетворения имеющейся потребительской потребности. Таким образом, можно сделать вывод о том, что разработка стратегии выхода компании на рынки зарубежных стран является комплексным и многогранным процессом. Из-за наличия высокой степени неопределенности и изменчивости внешней экономической среды, компании разрабатывают все новые стратегии выхода на внешние рынки, включая в них многовариантные подходы к управлению процессами, анализу состояния рынков, оценке и увеличению конкурентного преимущества.

Лично я сама смогла сделать первый экспорт своих картин этими сильными стратегиями которые я разработала,но к сожалению моя цепочка оборвалась в связи неспокойной обстановкой во всем мире которая все еще не урегулировалась . Но верю когда вся обстановка нормализуется мы сможем возобновить свой экспорт и наша продукция будет радовать людей во всем мире я очень верю что наша продукция займет достойное место великих выставках Лувра.

SUD ISHLARINI YURITISH TIL PRINSIPI VA TARJIMON FAOLİYATI

Mahmudova Shohsanam Ilhomjon Qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti 1-kurs Talabasi

E-mail:shohsanammahmudova134@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O`zbekiston Respublikasida sud ishlari yuritish til prinsipi va tarjimon xizmatlarining tushunchalari hamda huquqiy asoslari o`rganiladi. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik protsessual kodeksi va Jinoyat-protsessual kodeksida sud ishlari yuritish tili bo`yicha normalar belgilangan bo`lib, ularning amaliyotda qo`llanilishi va mavjud muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada sud ishi yuritiladigan tilni bilmaydigan shaxslarga tarjimon xizmatlarining bepul taqdim etilishi hamda ushbu xizmatning sifatini ta`minlash masalalari yoritiladi. Tadqiqotda xorijiy tajribalar o`rganilib, O`zbekiston uchun qo`shimcha takliflar ishlab chiqilgan. Ushbu maqola sud tizimidagi til huquqlari va tarjimon xizmatlarining samaradorligini oshirish borasidagi dolzarb masalalarni qamrab olgan.

Annotation: This article examines the concepts and legal foundations of the principles of the language of court proceedings and interpreter services in the Republic of Uzbekistan. The norms regarding the language of court proceedings are established in the Constitution of the

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Republic of Uzbekistan, the Civil Procedure Code, and the Criminal Procedure Code, and the article analyzes their application in practice and existing problems. Additionally, the article highlights the provision of free interpreter services to persons who do not understand the language in which court proceedings are conducted, as well as issues related to ensuring the quality of such services. The study also explores foreign experiences and provides additional recommendations for Uzbekistan. This article addresses pressing issues regarding language rights and the effectiveness of interpreter services in the judicial system.

Аннотация: В данной статье рассматриваются понятия и правовые основы принципов языка судебного производства и услуг переводчика в Республике Узбекистан. Нормы, касающиеся языка судебного производства, закреплены в Конституции Республики Узбекистан, Гражданском процессуальном кодексе и Уголовно-процессуальном кодексе, и в статье анализируется их применение на практике и существующие проблемы. Также в статье освещаются вопросы предоставления бесплатных услуг переводчика лицам, не понимающим язык, на котором ведется судебное разбирательство, а также проблемы, связанные с обеспечением качества таких услуг. В исследовании изучен зарубежный опыт и даны дополнительные рекомендации для Узбекистана. Данная статья охватывает актуальные вопросы, касающиеся языковых прав и эффективности услуг переводчика в судебной системе.

Kalit soʻzlar: Sud ishlari yuritish tili, til prinsipining huquqiy asosi, huquqiy davlat, xalqaro tajriba, sud yuritish jarayoni, tarjimon xizmati, qonunchilikdagi boʻshliqlar.

Mamlakatimizda “Yoshlar – yangi Oʻzbekiston bunyodkorlari” shiori ostida “Yangi Oʻzbekiston – uchinchi renessans” gʻoyasining roʻyobga chiqarilishini taʼminlash, oʻzbek xalqining milliy qadriyatlari va maʼnaviy merosini asrab-avaylash, keng ommalashtirish hamda rivojlantirishga alohida eʼtibor berilmoqda. Har qanday davlat tuzumi asosini uning tabiiy, hududiy, milliy va etnik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yaratilgan qonunlari tashkil etadi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 2-moddasi 1-bandida "har bir inson irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy va boshqa eʼtiqodlaridan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mol-mulki, tabaqasi va boshqa holatidan qatʼi nazar, ushbu deklaratsiyada eʼlon qilingan barcha huquq va barcha erkinliklarga ega boʻlishi zarur", deb belgilangan boʻlsa, Fuqarolik va siyosiy huquqlar toʻgʻrisidagi xalqaro paktning 2-moddasi 1-bandida: "Ushbu paktida ishtirok etuvchi har bir davlat oʻz hududidagi va oʻz yurisdiksiyasida boʻlgan shaxslarning mazkur paktida eʼtirof etilgan huquqlarini hech bir ayirmachiliksiz, jumladan, irqi, tanasining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa eʼtiqodidan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli, tugʻilishi yoki oʻzga holatidan qatʼi nazar, hurmat qilish va taʼminlash majburiyatini oladi", - deb mustahkamlab qoʻyilgan. Koʻrinib turibdiki, har ikkala xalqaro hujjatda, millatidan qatʼi nazar, fuqarolarning teng huquqli belgilanganligi, shu bilan birga, bu huquq va erkinliklarni hurmat qilish va taʼminlash majburiyati bevosita davlatning oʻziga yuklatilgan. Oʻzbekiston

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Respublikasi Konstitutsiyasi va xalqaro huquqning umume`tirof etilgan normalarida inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklariga hech qanday cheklashlarsiz amal qilish davlatimiz, millatimiz tarixida muhrlangan. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev: "Bugungi kunda biz yangi O`zbekistonni, yangi Renessans poydevorini barpo etishdek ezgu maqsadlarimizga erishishda, hech shubhasiz, ona tilimizning hayotbaxsh qudratiga tayanamiz. Chunki, necha aslar osha ajdodlarimizdan bizga bezavol o`tib kelayotgan ona tilimizning ravnaqi va istiqboli haqida qayg`urish - bu millatning o`zligini anglashi, kamolotini yuksaltirish uchun kurash demakdir. Davlat tilining obro` - e`tibori butun xalq, butun jamiyatning obro` - e`tiboridir", - deb ta`kidlagan edi. O`zbekiston Respublikasida davlat tilining huquqiy maqomi Konstitutsiya va maxsus qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Konstitutsiyaning 4-moddasiga ko`ra, O`zbekiston Respublikasining davlat tili — o`zbek tilidir. Bu norma mamlakatda davlat boshqaruvi, huquqni qo`llash, hujjat yuritish va sud ishlari kabi muhim sohalarda o`zbek tilining rasmiy maqomini belgilab beradi. Davlat tilining maqomi birgina konstitutsiyaviy norma bilan cheklanmaydi. 1989-yilda qabul qilingan va hozirgi kunga qadar amalda bo`lgan “Davlat tili haqida”gi Qonun ushbu prinsiplarga normativ asos bo`lib xizmat qiladi. Ushbu qonun davlat tili sifatida o`zbek tilining ijtimoiy-huquqiy hayotda to`laqonli qo`llanilishini ta`minlashni nazarda tutadi. Sud ishlarini yuritish til prinsipining asosiy mazmuni – bu yuritilayotgan ishlarning qaysi tilda olib borilishi, ishtirokchilarning o`z fikrini erkin ifodalashi, huquqiy jarayonlarni tushunishi va anglab yetishi huquqlari bilan bevosita bog`liq tamoyildir. Ushbu prinsip ham aynan mana shu rasmiy maqomga tayanadi. Ya`ni, O`zbekiston Respublikasi sudlarida ish yuritish o`zbek tilida olib borilishi belgilangan bo`lib, bu davlat suvereniteti, huquqiy tizim mustaqilligi hamda davlat tilining amaliy ustuvorligini namoyon etadi. Shu bilan birga, bu prinsip inson huquqlariga zid tarzda emas, balki fuqarolarga o`z ona tilida yoki tushunadigan tilda sud jarayonida ishtirok etish huquqini tan olgan holda qo`llaniladi. Demak, rasmiy til maqomi va unga asoslangan til prinsipi nafaqat huquqiy tartibotni ta`minlash vositasi, balki demokratik jamiyatda tenglik, oshkoralik va adolatni qaror toptirishda ham muhim tamoyil sifatida xizmat qiladi.

Yuqorida til prinsipi tushunchasi va bu prinsipning asosi keltirib o`tildi. Xuddi shu til prinsipining huquqiy davlatdagi o`rni va ahamiyati ham qay darajada prinsip asoslariga muvofiq ekanligi muhokama qilinadi. Buni muhokama qilishdan oldin huquqiy davlat o`zi qanday davlat ekanligiga urg`u bermoqchiman. Huquqiy davlat – bu fuqarolarning huquq va erkinliklari eng yuqori qadriyat sifatida e`tirof etiladigan, davlat hokimiyati qonun bilan cheklangan va huquq ustuvorligiga asoslangan boshqaruv shaklidir. Bunday davlat konsepsiyasi adolat, qonun ustuvorligi va inson huquqlarini kafolatlash g`oyalari ustiga quriladi. Bunday davlatda har bir institut, jumladan sud hokimiyati ham, qonuniylik va adolat tamoyillariga asoslanadi. Ushbu konsepsiyada til prinsipi muhim ijtimoiy omil sifatida e`tirof e`tiladi, chunki u nafaqat davlatning rasmiy aloqa vositasi, balki fuqarolarning o`z fikrini erkin bildirish, sud va ma`muriy jarayonlarda teng ishtirok etish huquqlarini ta`minlaydi. Sud ishlari yuritilishida til prinsipining

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

mavjudligi va unga qatʼiy rioya qilinishi esa ushbu tamoyillarning amalda roʻyobga chiqishini taʼminlovchi muhim omildir. Til prinsipining huquqiy davlatdagi oʻrni, avvalo, fuqaroning qonun oldida tengligi, adolatli sud muhokamasida ishtirok etish huquqi va oʻz fikrini erkin ifoda etish imkoniyatlaridan bevosita kelib chiqadi. Davlat tilida yuritiladigan sud jarayonida barcha ishtirokchilar, ayniqsa, fuqarolar, jinoyat ishida gumonlanuvchilar yoki jabrlanuvchilar, fuqarolik ishida taraflar oʻz huquq va majburiyatlarini toʻliq tushunishi lozim. Agar ular sud yuritish tilini bilmasa, ularning huquqlari buzilish xavfi ortadi. Shu sababli, til prinsipining huquqiy asos sifatida mustahkamlanishi – adolatli sudlovning ajralmas qismidir. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasida barcha shaxslar qonun va sud oldida tengligi mustahkamlab qoʻyilgan. Shuningdek, 139-moddada har bir fuqaro sudda oʻz ona tilida soʻzlashish huquqi eʼtirof etiladi. Sud-huquq tizimida bu normalarning amalda qoʻllanilishi esa til prinsipining muhimligini namoyon etadi. Protsessual qonunchilik, xususan, Jinoyat-protsessual kodeksning 20-moddasi va Fuqarolik protsessual kodeksining 11-moddasida sud ishlari oʻzbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan hududdagi koʻpchilik aholi soʻzlashadigan tilda olib borilishini belgilaydi, lekin ishtirokchilarning ona tilida gapirish, yozish va tarjimon yordamidan hamda ularga taqdim etilishi lozim boʻlgan hujjatlar oʻzlarining ona tilida taqdim etilish huquqini kafolatlaydi. Huquqiy davlatda til prinsipi shunchaki maʼmuriy tartib emas – u sud adolatining mazmuniy jihatidir. Fuqaroga adolatli sudlovni taqdim etish uchun u oʻz fikrini erkin bayon etishi, daʼvo va eʼtirozlarini toʻgʻri ifodalashi, sud qarorlarini toʻgʻri tushunmogʻi zarur. Bu jarayonda til – vosita sifatida emas, balki konstitutsiyaviy huquqni amalga oshirish vositasi sifatida maydonga chiqadi. Xulosa qilib aytganda, sud yuritilishida til prinsipining mavjudligi va unga rioya qilinishi – huquqiy davlatning poydevoridir. U nafaqat adolatli sudlovni taʼminlaydi, balki fuqarolarning oʻz huquqlarini toʻliq anglash va himoya qilish imkoniyatini ham beradi. Til prinsipining huquqiy asosda mustahkamlanishi – davlat va jamiyat oʻrtasidagi ishonchni mustahkamlovchi, fuqarolarning sud tizimiga boʻlgan munosabatini yaxshilovchi omildir. Til prinsipining asosiy amaliy jhati – tarjimon instituti bilan bogʻliqdir. Agar ishtirokchi ish yuritish tilini bilmasa, unga bepul tarjimon xizmatidan foydalanish imkoniyati beriladi. Bu xalqaro standartlarga ham mos keladi. Sud ishlari til prinsipining mazmuni faqat sud zali bilan cheklanmaydi. Sud qarorlarining tomonlarga tushunarli tilda yetkazilishi, yozma hujjatlarning tarjima qilinishi ham bu prinsipning tarkibiy qismidir. Aks holda, fuqaroning apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida murojaat qilish huquqi amalda buzilishi mumkin. Til prinsipining sud amaliyotidagi mazmuni keng va koʻp qirrali boʻlib, u adolatli sudlov, inson huquqlari, davlat tilining maqomi va fuqarolik jamiyati tamoyillari bilan uzviy bogʻliqdir. Til prinsipiga rioya qilinishi – qonuniylik va ishonch muhitining asosi boʻlib xizmat qiladi. Oʻzbekiston koninental huquqiy oilasiga mansub boʻlganligi tufayli, xorjiy tajriba asosida kontinental huquqiy oilasiga mansub boʻlgan mamlakatlarning faoliyatida til prinsiplarining ahamiyati va qoʻllanilishini koʻrib chiqamiz:

Rossiya Federatsiyasi:

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Rossiyada rus tili davlat tili sifatida belgilangan (Konstitutsiya, 68-modda), biroq milliy respublikalarda (masalan, Tatariston, Boshqirdiston) oʻz tillari ham rasmiy maqomga ega. Sud jarayonlarida fuqarolar rus tilini bilmasa, oʻz ona tilida soʻzlashish va tarjimondan foydalanish huquqiga ega. Bu federal tuzilmadagi koʻp tillilik muvozanatini taʼminlashga xizmat qiladi.

Germaniya:

Germaniyada sud protsessi rasmiy ravishda nemis tilida olib boriladi. Biroq, ishtirokchi nemis tilini bilmasa, unga tarjimon xizmatlari taqdim etiladi, ayniqsa jinoyat va immigratsiya ishlari boʻyicha. Tarjima xarajatlari odatda davlat hisobidan qoplanadi. Germaniya Inson huquqlari boʻyicha Yevropa konvensiyasiga muvofiq tarjimon huquqi – adolatli sudlovning majburiy elementi sifatida qoraladi.

Belgiya: mintaqaviy asosda til yuritilishi.

Belgiya – konstitutsiyaviy monarxiya boʻlib, unda sud ishlari yuritish tili mintaqaga bogʻliq holda belgilanadi (niderland, fransuz yoki olmon tillarida). Sud protsessining tilini mintaqaning rasmiy tili belgilaydi, lekin agar ishtirokchi boshqa tilni tushunsa-yu, rasmiy tilni tushunmasa, tarjimon xizmatidan foydalanishi kafolatlanadi (Belgium Code of Judicial Procedure, §30). Koʻrib turganimizdek yuqorida keltirilgan davlatlarda ham sud ishlari rasmiy til yaʼni, oʻz ona tilida olib boriladi va tilni tushunmaydigan sudqa qatnashuvchi shaxsga tarjimon xizmatidan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Bu esa til prinsipining deyarli jahon miqyosida tan olinishi va huquqiy asosda mustahkamlab qoʻyilishini anglatadi.

Sud yuritish jarayoni – bu huquq va majburiyatlar, faktlar va huquqiy baholashlarning aniqlik bilan muhokama qilinadigan jarayonidir. Sud protsesslarida davlat tilidan foydalanish tartibi har bir davlatda milliy siyosat, konstitutsiyaviy tamoyillar va inson huquqlari tizimi bilan chambarchas bogʻliqdir. Amaliyotda sud ishlari barcha hujjatlar, chaqiruv qogʻozlari, qarorlar va boshqa protsessual harakatlar davlat tilida yuritiladi. Agar ishtirokchi Oʻzbek tilini bilmasa, unga tarjimon tayinlanadi, va hujjatlar tarjima qilinadi. Tarjimon xizmatining sifatli va betaraf boʻlishi qonuniylik tamoyiliga xizmat qiladi. Odatda, davlat tili rasmiy aloqa, hujjat yuritish, sud-tekshiruv jarayonlarining asosiy vositasi sifatida qoraladi. Biroq, demokratik jamiyatlarda bu yondashuv qatʼiy emas: sud ishtirokchilarining til erkinligi, tarjimon yordamidan foydalanish huquqi ham shunchalik muhim hisoblanadi. Davlat tilining sud yuritishida qoʻllanilishi sud ishlarini rasmiy asosda tashkil qilishga xizmat qiladi. Sud qarorlari, protsessual hujjatlar, daʼvo va eʼtirozlarning yuritish tili bir xil boʻlishi huquqiy aniqlik va izchillikni taʼminlaydi. Shu bilan birga, tilni tushunmaydigan shaxslarga tarjima taqdim etilmasligi — adolatli sudlov tamoyilini buzadi. Bu holat Yevropa Inson huquqlari sudi amaliyotida ham koʻp marta muhokama qilingan. Tarjimon xizmatining asosiy maqsadi – til toʻsigʻini yengib oʻtish orqali har bir fuqaroning sudqa ishtirok etish, oʻzini himoya qilish va protsessual huquqlaridan toʻliq foydalanishini taʼminlashdir. Tarjimon deganda, voyaga yetgan, tergov va sud harakatlari doirasida tarjimani toʻliq va aniq bajarish uchun zarur boʻlgan tillarni va maxsusatamalarni yetarlicha egallagan, ish yakunidan manfaatdor boʻlmagan, oʻz zimmasiga tarjima qilish majburiyatini olgan va qonunda

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

koʻrsatilgan hollarda surishtiruv organi, tergovchi, prokuror, sudya, yoki sud tomonidan tayinlangan shaxsni tushuniladi. Mazkur taʼrif tarjimon sifatida ishga jalb qilinadigan shaxsga qoʻyiladigan talablarga muvofiq boʻlib, undan nazariy va amaliy maqsadlarda foydalanish mumkin. Har ikki tilda yozma va ogʻzaki nutqini erkin egallash, bizningcha shaxsni tarjimon sifatida ishda ishtirok etish asoslaridan biri hisoblanadi. Oʻzbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksida tarjimonni chaqirish asoslari (71-modda) uning huquq va majburiyatlari (72-modda) mustahkamlangan. Tarjima uchun zarur boʻlgan har ikki tilni erkin bilishda soʻzning asl manosidan kelib chiqilsa, “erkin” tushunchasi muayyan xatti-harakatni “qiynalmay, qiyinchiliksiz, bemalol bajarish”ni anglatadi. Bundan koʻrinib turibdiki, gap tarjimani lugʻatsiz, ish boʻyicha haqiqatning qaror topishiga tasir koʻrsatmaydigan koʻlamda va aniqlik bilan hamda ishni sudda koʻrilishini murakkablashtirmaydigan darajada boʻlishini taʼminlash haqida boradi. Aksariyat hollarda tarjimon huquq sohasida mutaxassis boʻlib hisoblanmasligiga qaramay, u huquqshunoslar tomonidan hal etiladigan yuridik muammolar va masalalar mohiyatiga taʼsir etmay turib, barcha zarur boʻlgan, shu jumladan yuridik atamalar va iboralar bilan qiynalmasdan ishlashga imkon beruvchi oʻzi foydalanayotgan tillarda yetarli miqdordagi lugʻat zaxirasiga ega boʻlishi lozim. Tarjimondan tarjima qilish uchun zarur boʻlgan har ikki tilni erkin egallash talab etiladiki, bunda uning har qanday, jumladan, maxsus atamalar tarjimasini amalga oshirish qobiliyati tushuniladi.

Xulosa oʻrnida shuni taʼkidlash mumkinki, sud ishlari yuritiladigan til prinsipi shunchaki prinsip boʻlibgina qolmay, u huquqiy hamda demokratik davlatning muhim unsurlaridan biri hisoblanadi. Til prinsipining asosi mavjud qonunchiliklarda huquqiy asoslantirilgan lekin muammo shundaki, til prinsipining asl mazmuni va mohiyati hech qaysi normativ hujjatlarda yoritilmagan. Bundan tashqari, sud ishi qaysi tilda olib borilsa qaror, hukm va ajrimlar ham shu tilda chiqarilishi kerakligi ham qonunchilikda qatʼiy belgilanmagan. Sud ishi yuritiladigan tilni bilmaydigan sud ishi qatnashuvchilariga tarjimon xizmatidan foydalanish huquqi berilganligi Oʻzbekistonning demokratik va huquqiy rivojlanish yoʻlidagi muhim qadamlaridan biridir. Ammo, tarjimonlik faoliyati bilan bogʻliq qonunchiligimizda muayyan boʻshliqlar mavjud. Aniqrogʻi tarjimonlik faoliyatini tartibga soluvchi alohida norma yoki hujjat mavjud emas. Bu holat amaliyotda muayyan qiyinchiliklarga olib kelmoqda, jumladan:

Tarjimonlar malakasining tasdiqlanmaganligi;

Betaraflilik, aniqlik va texnik tayyorgarlik boʻyicha nazoratning sustligi;

Tarjimani baholash va shikoyat qilish mexanizmining mavjud emasligi.

Qonunchilikdagi shu kabi kamchiliklar bartaraf etilsa, sud yuritish ishlarida yana ham koʻproq muvaffaqiyatlarga erishiladi. Shuningdek, xorijiy tajribani hisobga olgan holda sud ishlari yuritiladigan tilni bilmagan sud ishtirokchisini bepul tarjimon xizmati bilan taʼminlash ham fuqarolarning huquqlarini yuksaltirishga xizmat qilgan boʻlar edi. Sud ishlarini yuritish tiliga oid prinsipni amalda toʻgʻri va izchil qoʻllash huquqiy davlat qurilishi, sud tizimining ishonchliligi va xalqning sud hokimiyatiga boʻlgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Shu bois bu prinsipni chuqur o`rganish, qonunchilikda yanada aniq va zamonaviy tartiblarni joriy etish hamda amaliyotda qo`llash mexanizmlarini takomillashtirish bugungi davr talabidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES):

1. <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-khal-iga-bayram-tabrigi-21-10-2020>.
2. <https://search.app/Qry76Y6G7WeerAZBA>
3. <https://lex.uz/docs/-2640479>
4. <https://lex.uz/mact/-111460>
5. <https://lex.uz/acts/-3517337>
6. <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>
7. <https://www.admin.ch/>
8. <https://www.justice.gov.za/>

O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLARI VA IMKONIYATLARI

Sattarganova Sevinchoy

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti

Iqtisodiyot va boshqaruv fakulteti

Axborot tizimlari va texnologiyalari yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Sevinchsattarganova2903@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning hozirgi holatini, mavjud istiqbollari va imkoniyatlarini tahlil qiladi. Shuningdek, raqamli transformatsiya jarayonida yuzaga kelayotgan asosiy muammolar va ularni hal etish yo'llari ko'rib chiqiladi. Maqolada raqamli iqtisodiyotni muvaffaqiyatli rivojlantirgan xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasi o'rganiladi va O'zbekiston sharoitida qo'llanilishi mumkin bo'lgan muhim darslar aniqlanadi. Tadqiqot natijalari O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishga amaliy yordam berishi kutilmoqda.

Kalit so'zlar: Raqamli iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, O'zbekiston, istiqbollar, imkoniyatlar, muammolar, hal etish yo'llari, xalqaro tajriba, elektron hukumat, raqamli infratuzilma, axborot texnologiyalari, kiberxavfsizlik, raqamli savodxonlik, innovatsiyalar.

O'zbekiston o'zining yangi taraqqiyot bosqichida global raqobatbardoshlikni oshirish, aholi turmush farovonligini yaxshilash va iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash maqsadida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat bermoqda. XXI asrning axborot-